



OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Turizm va iqtisodiyot fakulteti talabasi
Bazarbayev Umarbekning “Soliqlar va
soliqqa tortish” fanidan “Aksiz solig’l”
mavzusida tayyorlagan

REFERATI

Qabul qildi:
2015 -yil

Matjonov B.



Reja:

1. Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati.
2. Aktsiz solig'ining to'lovchilari va soliq ob'yekti.
3. Aktsiz solig'ining stavkalari va to'lash muddatlari.



Aksiz solig'i va uning joriy qilinishi

- Aksiz solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra egri soliq bo'lib, umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. U QQS dan farqli chegaralangan mahsulotlar narhiga yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning tarifiga qo'shiladi. "Aktsiz" so'zi fransuzchadan kesib tashlash ma'nosini bildiradi.
- Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlari (tuz, tamaki, alkogol mahsulotlari, gugurt, shakar va boshqalar)ga aynan aktsiz solig'i ko'rinishida namoyon bo'lgan.



Aksiz solig'i va uning joriy qilinishi

Qadimda aktsizlar boshqa nomlar bilan boj, to'lov, yig'im yoki soliq deb atashgan.

Aktsizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqqa tortish mexanizmi to'g'risida taxminiy ma'lumotlar mavjudligi uning **ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga** imkon bermaydi. Masalan, (er.av.162-133 va 153-121 y.y.)da Rim g'aznasiga qullarni ozod etishdan, hamda o'z shaxsiy iste'moli uchun zarur bo'lmagan tovarlarni dengiz orqali **Rimga olib kelinishidan yig'imlar** tushib turgan.



Aksiz solig'i va uning joriy qilinishi

Qadimgi **Misrda** XII-XIII chi sulolalar davrida (er.av. Ikkinchi ming yillik) **pivoga** soliq solingan. Bu to'lovlar aktsizlar bo'lmasligi mumkin, lekin ularni aktsizlarning **dastlabki namunalari sifatida e'tiborga** olish mumkin. Tarixiy manbalarga ko'ra, **Angliyada Kromvel** davrida respublikaning 20 yil amal qilishi davomida aktsizlarning **200 ga** yaqin turi joriy etilgan.



Aksiz solig'i va uning joriy qilinishi

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'li bilan birgalikda oborot solig'li va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan.



Aksiz solig'ining QQSdan farqi:

- Aktsiz solig'I ish va xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi, faqat tovarlarning ayrim turlariga nisbatan qo'llaniladi.
- Aksiz solig'ining QQSdan yana bir farqi, QQS barcha ishlab chiqarish, sotish, qayta ishlash jarayonlarida undirilsa, aksiz solig'I faqat bir marta ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi.

Aksiz solig'ining ahamiyati va vazifalari

- Mamlakat budjetining muhim daromad manbalaridan biri bo'lib, bu soliq orqali davlat budjeti tez va oson moliyaviy resursga ega bo'ladi;
- Ijtimoiy zararli mahsulotlarning iste'moli cheklanadi;
- Davlatning milliy bozorini himoya qilish (masalan, paxta yog'i);
- Aholining boy-badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqqa tortish usuli bo'lib hisoblanadi (avtomobil, zargarlik buyumlari va mebel).



Aksiz solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'рни

- Aksiz solig'I davlat budjet daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi jumladan, 2000-yilda 22.8%ni, 2001-yilda 26.3%ni, 2003-yilda 31.1%ni, 2006-yilda 19%ni, 2009-yilda 14.4%ni, 2010-yilda 16,7, 2011 yilda 15,3%, 2012-yilda esa 15,1%ni tashkil etishi prognozashtirilgan. Egri soliqlar tarkibida esa 27,8 foizni tashkil etishi prognozashtirilgan.



Aksiz solig'ining to'lovchilari

- Aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib, aksiz osti tovarlarini ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Aksiz solig'ining obyekti:

1. Aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:
 - Tovarni sotish (jo'natish);
 - Garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomondan topshirish;
 - Aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
 - Aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga topshirish;
 - Aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga ayirboshlash uchun topshirish;
2. Aksiz to'lanadigan tovarni yuridik shaxsning ustav fondiga hissa yo pay badali tariqasida topshirish;
3. Aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan taqdirda yoki yuridik shaxs tugatilyotganligi munosabati bilan topshirish
4. Ishlab chiqarilgan yoki qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;
5. Aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston respublikasining boxona hududiga import qilish



Aksiz solig'ining bazasi:

- Aktsiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan **tovarlarning naturada ifodalangan hajmi** asosida aniqlanadi.
- Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aktsiz to'lanadigan **tovarlar** bo'yicha, realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan **qiymati soliq solinadigan bazadir.**



Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

- 1) aktsiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan **eksportga** realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;



Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

- 2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida **qayta ishlash**» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;



Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda **insonparvarlik yordami sifatida**;
- davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan **xayriya yordami** maqsadida, shu jumladan **texnik ko'mak ko'rsatish** maqsadida;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek **grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan**, aktsiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga.



Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

4) aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aktsiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;



Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.



Aksiz solig'ining stavkasi

- Tovarning narxiga nisbatan foizlarda belgilanadi – *advolor stavka*;
- Tovarning natural ko'rinishidagi har bir o'lchamiga absolyut summada belgilanadi – *qat'iy stavka*.

Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқариладиган акциз солиғига тортиладиган товарларга нисбатан акциз солиғи СТАВКАЛАРИ (2013)

Товарлар номи	Солиқ ставкаси	
	акциз солиғи ва қўшимча қиймат солиғини ҳисобга олмаган ҳолда сотилган товарлар қийматига нисбатан фоизларда	бир ўлчов бирлигига сўмда
1. Этил спирти (1 дал учун)		2 636
2. Вино (1 дал тайёр маҳсулот учун)(1)		4 981
3. Коньяк, ароқ ва бошқа алкоғолли маҳсулотлар (1 дал тайёр маҳсулот учун)(1)		21 800*
4. Пиво (1 дал тайёр маҳсулот учун)(1)		2 587
5. Ўсимлик (пахта) ёғи (1 тонна учун)(1):		
озик-овқат ёғи (саломас ишлаб чиқариш учун ишлатиладиган ёғ ва "Ўзбекистон" ёғидан ташқари)		723 690
техник мой (кислота миқдори 0,3 мг КОН/г дан юқори, озиқ-овқат маҳсулотлари таркибига қўшишга яроқсиз бўлган)		398 090
6. Сигареталар (1 минг дона учун)(1):		

фильтрли		10 739
фильтрсиз, папирослар		5 183
7. Заргарлик буюмлари	25	
8. "Женерал Моторс Ўзбекистон" ЁАЖ ишлаб чиқарган автомобиллар(2)	29	
9. Кумушдан ишланган ошхона анжомлари	11	
10. Қимматбаҳо металллар(2)		
11. Нефть маҳсулотлари(1):		
Аи-80 бензини	40%, бироқ камида 321 430 сўм/тонна	
Аи-91, Аи-92, Аи-93 бензини	40%, бироқ камида 353 430 сўм/тонна	
Аи-95 бензини	40%, бироқ камида 408 890 сўм/тонна	
дизель ёқилғиси	34%, бироқ камида 273 400 сўм/тонна	
ЭКО дизель ёқилғиси	34%, бироқ камида 284 250 сўм/тонна	
авиакеросин	9%, бироқ камида 50 580 сўм/тонна	

Motor yogi	25%, бироқ камида 207 000 сўм/тонна	
12. Табиий газ (аҳолига сотиладиган табиий газ ҳажмларидан ташқари), шу жумладан экспорт(2)	25	
13. Ишлаб чиқарувчи корхоналар томонидан сотиладиган суюлтирилган газ ("Ўзтрансгаз" АК минтақалараро унитар корхоналари томонидан аҳолига сотиладиган газ ҳажми бундан мустасно), шу жумладан экспорт(2)	26	
14. Пахта толаси(3)		

**) Ҳажмий улушда этил спирти 40 фоиздан кўп бўлган коньяк, ароқ ва бошқа алкоғолли маҳсулотларга акциз солиғи ставкаси 1 дал тайёр маҳсулот учун 35 921 сўм миқдорида белгиланади.*

Изоҳлар:

1. Бир ўлчов бирлигига сўмда белгиланган акциз солиғи ставкалари Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан нархларнинг динамикаси ҳамда маҳсулотнинг сотилиши ҳажмидан келиб чиққан ҳолда йил мобайнида қайта кўриб чиқилиши мумкин.

2. "Женерал Моторс Ўзбекистон" ЁАЖ автомобиллари, табиий ва суюлтирилган газ, шунингдек қимматбаҳо металлларга акциз солиғини тўловчилар ва уни тўлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси билан келишилган ҳолда белгиланади.

3. Пахта толасининг ички нархлари (реализация бўйича харажатларни ҳисобга олган ҳолда) ва уни реализация қилишнинг ҳақиқий нархи ўртасидаги ижобий фарқ пахта тозалаш корхоналарининг махсус ҳисобрақамида жамланади ва 25 фоизгача бўлган миқдорда Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланадиган тартибга мувофиқ кредиторлик қарзини сўндириш учун пахтачилик фермер хўжаликларига, 25 фоиз миқдорида Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат эҳтиёжлари учун харид қилинадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ҳисоб-китоб қилиш жамғармасининг кредитлари бўйича қарзларни сўндиришга, қолган қисми эса - мазкур Жамғарманинг бошқа маблагларини тўлдирishга йўналтирилади.



Hisob-kitobni taqdim etish tartibi

Aktsiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- aktsiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.



Aksiz solig'ini to'lash muddatlari va hisob-kitobini taqdim etish tartibi:

- Joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- Joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- Keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun to'lanadi.



Xorij amaliyotida aksiz solig'i:

- **AQSHda** aksiz solig'ining budget daromadlaridagi salmog'I kichik bo'lib, bu soliq tamaki, va alkogolli mahsulotlarga, transport xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Aksiz solig'I stavkasi 10%ni tashkil etadi.
- **Buyuk Britaniyada** aksiz solig'I egri soliqlar tarkibida QQSdan keyingi o'rinni egallaydi. Bu soliq yoqilg'I, alkogol tamaki mahsulotlariga, transport vositalari va xizmatlariga nisbatan joriy qilingan. Uning Stavkasi 10-30% oraliqda tebranadi.



Xorij amaliyotida aksiz solig'i:

- **Germaniyada** aksiz soligi'I bo'yicha tushumlarning asosiy qismi Federal budgetga o'tkaziladi, faqat pivoga nisbatan joriy qilingan aksiz solig'I bo'yicha tushumlar federal budgetga kelib tushmaydi. Aksiz solig'ining stavkalari tovarlarning noto'g'ri birligiga nisbatan % va yevroda belgilangan. Masalan, sug'urta bitimlari bo'yicha aksiz solig'ining stavkasi sug'urta polisi summasining 12%ini miqdorida belgilangan. Shampan vinosiga nisbatan belgilangan soliq stavkasi 0.75litr uchun 2 yevroni tashkil etadi.
- **Fransiyada** esa aksiz osti tovarlarining natural birligiga nisbatan qat'iy stavkalar belgilab qo'yilgan.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб келинадиган акцизли товарларга акциз солиғи СТАВКАЛАРИ

Товар гурухи- нинг рақами	Товарларнинг номи	ТИФ ТН бўйича товар коди	Товарнинг божхона қийматидан фоизларда ёки ўлчов бирлиги учун АҚШ долларида
02	Янги сўйилган, совутилган ёки музла-тилган гўшт ва истеъмолбоп гўштли қўшимча маҳсулотлар	0201 - 0206, 0208	30
		0207	70
04	Қуюлтирилган ёки шакар ёхуд бошқа ширин қилувчи моддалар қўшилган сут ва сливкалар	0402 91, 0402 99	30
	Айрон, ивиган сут ва сливкалар, йогурт, кефир	0403	70
	Пишлоқ ва творог	0406	70
	Паррандалар (наслдорларидан ташқари) тухуми	0407 00	70
	Табиий асал	0409 00 000 0	10

08	Янги узилган банан, плантайдан ташқари	0803 00 190 0	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Янги узилган ананас	0804 30 000 1	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Авокадо	0804 40 000 0	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Янги узилган гуаява, манго ва мангостан (гарциния)	0804 50 000 1	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Апельсин	0805 10	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Мандарин (шу жумладан танжерин ва сатсума); клементин, вилкинг ва цитрусли-ларнинг шунга ўхшаш гибридлари, янги узилган ёки қўритилганлари	0805 20	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Грейпфрут, шу жумладан помело, янги узилган ёки қўритилганлари	0805 40 000 0	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Лимон (citrus limon, citrus limonum), янги узилган ёки қўритилганлари	0805 50 100 0	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
	Янги узилган олма, нок ва беҳи	0808	100
	Киви	0810 50 000 0	25, бироқ камида 0,15 АҚШ долл./кг
(ЎзР Президентининг 25.04.2011 й. ПҚ-1522-сон Қарори таҳриридаги товар гуруҳининг сатри)			
09	Қовурилган ёки қовурилмаган, кофеинли ёки кофеинсиз кофе; кофе пўчоғи ва кофе уруғи қобиқлари; таркибида турли нисбатда кофе бўлган кофе ўрнини босувчилар	0901	20
11	Буғдой уни	1101 00 1100 1101 00 1500	15
(ЎзР Президентининг 25.04.2011й. ПҚ-1522-қарорига мувофиқ киритилган товар гуруҳининг сатри)			
15	Соя мойи ва унинг фракциялари	1507	10

16	Гўшт ва гўштли қўшимча маҳсулотлардан тайёрланган колбаса ва шунга ўхшаш маҳсу-лотлар	1601 00	50
	Гўшт ва гўштли қўшимча маҳсулотлардан тайёр ва консерваланган маҳсулотлар, болалар овқатидан ташқари	1602 (1602 10 001 0 дан ташқари)	50
21	Турли озиқ-овқат маҳсулотлари, болалар овқатидан ташқари	21 (2104 20 0010, 2105 00, 2106 90 980 1 дан ташқари)	50
	Музқаймоқ ва бошқа турдаги истеъмолга яроқли муз	2105 00	200
33	Парфюмерия, косметика ёки пардоз воситалари	3303 00, 3304	50
		3305-3307 (3306 10 000 0 дан ташқари)	15
34	Совунлар (қумоқ-қумоқ совундан таш-қари); юзага фаол таъсир кўрсатувчи органик воситалар, кир ювиш воситалари, сунъий ва тайёр мумлар, тозалаш ва жилолаш учун таркиблар, шам ва шунга ўхшаш маҳсулотлар, ёпиштириш учун пасталар, пластилин, "тиш шифокори қўллайдиган мум" ва гипс асосидаги тишни даволаш воситалари	3401 (3401 20 100 0 дан ташқари), 3402 (3402 11 900 0, 3402 12000 0, 3402 13000 0, 3402 19000 0 дан ташқари), 3404 - 3407 00 000 0	20
	Мойлаш материаллари	3403 (3403 91 000 0 дан ташқари)	30
57	Гидамлар ва полга тўшаладиган бошқа тўқимачилик маҳсулотлари	5701 - 5705 00	120
58	Махсус матолар; тафтинг тўқимачилик материаллари; тўрлар; гобеленлар; безак материаллари; кашталар	5801 - 5811 00 000 0	20
90	Қуёшдан ҳимоя қилувчи қўзойнақлар	9004 10	30
91	Барча турдаги соатлар	9101-9105	5
94	Мебель	9401 30 - 9401 80 000 0, 9403 10 - 9403 89 000 0 (фуқаролик авиациясида ишлатиладиганларидан ташқари)	50
	Қандиллар, ёритиш ускуналари	9405 10, 9405 91 (9405 91900 1 дан ташқари), 9405 92000 9	30



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2008
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2013
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. //Xalq so‘zi, 1997 yil 29 avgust
4. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to‘g‘risida”gi Qonuni. //Xalq so‘zi, 2006 yil 21 sentyab
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1887-sonli Qarori

Internet saytlari:

<http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
<http://www.soliq.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
<http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
<http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi
<http://www.ziynet.uz> - Jamoat axborot ta’lim tarmog‘i